

SOHIBQIRON YO'LI: AMIR TEMURNING HAYOTI VA MEROSI

Mualliflar: Anarkulova Zubayda Fayzullo qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universitet o'qituvchisi

Abdusattorova Diyora Oybekovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola ulug' sarkarda Amir Temur hayoti, siyosiy faoliyati va tarixiy merosini yoritadi. Maqola uning yoshlik davri, harbiy yurishlari va Samarqandni o'z davlati poytaxtiga aylantirish yo'lidagi qiyinchiliklari tahlil qiladi. Tarixiy manbalar asosida uning dunyo tarixida tutgan o'rni va ahamiyatini ham o'rganadi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Movunnahar, Samarqand, adolat, sarkarda, jang, imperiya, Temuriylar davri, Temur tuzuklari, saltanat.

Temuriylar imperiyasi asoschisi asli ismi Amir Temur ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Barluq 1336-yil 9- aprelda Kesh (hozirgi Shahrisabz) yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida dunyoga kelgan. Otasi amir Tarag'ay barlos urug'ining oqsoqollaridan hamda Chig'atoy ulusining e'tiborli beklaridan biri onasi Takina xotun buxorolik bo'lgan. Yoshligidan jasur va ilmga chanqoq bo'lgan Temurni 7 yoshidan o'qishga berishadi. Ovchilik, chavandozlik kamondan nishonga o'q uzish kabi turli mashq va harbiy o'yinlar bilan mashg'ul bo'lgan Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir bo'lib voyaga yetgan. Amir Temur tabiatan o'g'ir bosiq, irodali, teran fikrli va idrokli bo'lib, kishilardagi qobiliyat, fazilat ayniqsa samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo'lgan. Shu tufayli o'spirinlik davrida atrofidagi tengqurlari orasidan sadoqatli do'stlarni saralab olgan. Keyinchalik o'sha do'stlari Amir Temur qo'shinida lashkarboshilik qilishgan. 1360-yilda Movarounnahr amirlarining Amir Abdullaga qarshi bosh ko'tarishi natijasida Movarounnahr o'nga yaqin mustaqil bekliklarga bo'lib ketadi. Shu yilning bahorida Mug'uliston xoni Tug'luq Temur Movarounnahrda yurish qiladi. Bundan qo'rqqan Kesh viloyati hukmdori Amir Hoji Barlos davlatni tashlab Xuroson tomonga qochadi. Amakisi qochganini eahitgan 24 yoshli Amir Temur Tug'luq Temur oldiga borishga ahd qiladi. Kesh bekligi Amir Temurga mulk qilib beriladi. Shu tariqa u siyosiy kurash maydoniga kirib keladi. Tug'luq Temurning o'g'li Ilyosxo'ja bilan Amir Temurning murosasi to'g'ri kelmaydi, va natijada 1365-yil 22- mayda Loy jangi bo'lib o'tadi.

1370yilda Amir Temur butun qo'shinlari bilan birga Amir Husaynga qarshi yo'lga chiqadi. Jangda g'olib bo'lgan Amir Temur o'zini Movarounnahrning amir deb e'lon qiladi. Davlat poytaxti Samarqand deb e'lon qilingan. Amir Temur mamlakatda

qonun va tartib ishlarini joriy etadi. Maxsus qo'shin tuzib, unga katta imtiyozlar beradi.

U yirik harbiy bo'linmalar boshliqlarini va sipohsolorlarni tayinlaydi. Shundan so'ng Amir Temur Xorazmga besh marta, To'xtamishxonga qarshi 3 marta yurish qiladi. Amir Temur ittifoqchilarni bittadan safdan chiqarish siyosatini tutdi. 1395-yilda To'xtamishxonga, 1402-yilda Yildirim Boyazidga qaqshatqich zarbalar berdi. Amir Temur jang qilishning yangi harbiy uslublarini qo'l-lagan. Xususan, jang vaqtida qo'shin qanotlarini dushman huju-midan muhofaza qilish va o'z navbatida, g'anim kuchlarini yon tomondan aylanib o'tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan – qanbulning joriy etilishi bo'lgan. Amir Temurning har bir harbiy yurishiga turtki bo'larlik sabab bor edi. Bu sa-bablar – o'z davlatining chegaralarini mustahkamlash, tashqi dushmanlardan himoyalanih, karvon yo'llarini turli yo'l-to'sarlardan tozalash, xiyonatchi, sotqin, aldanchilarni jozalash, bo'ysunmaganlarni itoat ettirish, o'zining siyosiy ta'sirini kengaytirishdan iborat bo'lgan.

Temuriylar davrini ba'zan Temuriylar Renesansi deb ham atashadi. Chindan ham O'rta Osiyo zaminidagi ilm-fan, she'riyat, san'at rivojida atrof borliqqa nisbatan kuchli qiziqish aks etdi. Shoirilar, muharrirlar, tasavvuf yo'nalishidagi mualliflarning ijodida insonparvarlik g'oyalari yaqqol namoyon bo'ldi. Temur huzuriga kelgan ispan elchisi Rui Gonsales De Klavixoning "Kundaliklari"ida musulmon sharqiga nisbatan keng ko'lamdagi qiziqish namoyon bo'ladi. Klavixoning guvohlik berishicha, Samarqandga kelib Go'ri Amir maqbarasining qurilishi bilan tanishganida Temur uning yuksakligidan qoniqmagan. Jome masjidning asosiy peshtoqi ham Temurga yetarlicha ulug'vor bo'lib ko'rinmagan va uni qayta qurishni buyurgan. Bizgacha saqlanib qolgan yodgorliklar Shohizinda, Axmad Yassaviy, Go'ri Amir maqbaralari, Bibixonim masjidini o'rganish shuni ko'rsatadiki, uning ichki va tashqi qiyofasi rejalarini tuzishda me'moriy shakllarning umumiy uyg'unligini belgilovchi tuzilmalarning aniq o'zaro nisbati bor ekan. O'rta asrlarning buyuk turkiy qo'mondoni, o'z hayotiy tajriba va ko'nikmalarini, kunlik bilimlarni to'plab Temur tuzuklariga asos solgan. Kitob, davlatni qanday boshqarish, bir yerni bosib olishda nimalarga e'tibor berish kerak ekanligi, jang rejaları, adolatli hukmdor bo'lishdagi qadamlar bilan tanishtiradi.

Amir Temur Saltanat ishlarining bir qismi sabru toqat bilan, yana bir qismi esa bilib-bilmaslikka, ko'rib-ko'rmaslikka solish bilan bo'lishi haqida yozadi. Temur davlatida ishlar har doim kengash asosida olib borilgan. Uning o'zi " har bir ishni kengash bilan bajardim, barcha ishlarning faqat bir qismini qilich orqali amalga oshirdim" degan edi. Haqiqatdan ham Amir Temur Turkiy xalqlar milliy udum va an'analariga tayangan holda barcha ishlarni kengash asosida amalga oshirishni o'z davlatini asosiy prinsipi qilib olgan edi. Amir Temurning vafotidan, imperiya ichida vorislik uchun ichki kurashlarning boshlangani sabab, Amir Temurning ko'plab nabiralari va o'g'illari taxt uchun kurashda vafot etishadi. Parokandalikdan

foydalangan dushmanlar davlatga hujum qilishadi. Davlat 1507-yilda parchalanib ketdi. Amir Temur hayoti nafaqat O'zbekiston balki jahon tarixshunosligida muhim o'rin tutadi. Yevropada ham uning shaxsini va tarixini o'rganishga bo'lgan qiziqish va hurmat har bir ozbek uchun faxr tuyg'usini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. A.A.Asqarov.(1996)Temur va Ulug'bek davri tarixi.Toshkent:Matbaa165 167betlar
2. Amir Temur.(2012)Temur tuzuklari.Toshkent: O'zbekiston 14-bet
3. Lyusen Keren.(1999).Amir Temur saltanati.Toshkent:Ma'naviyat.
4. I.Niyozov.(2001).Amir Temur saboqlari.Toshkent: Sharq 17bet
5. Hakim Sattoriy.(2005).Hazrat Sohibqiron.Toahkent:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.32,55 betlar
6. De Klavixo Rui Gonsales.Dnevnik puteshestviya v Samarkand ko dvoru Temura(1403-1406).Rep.I.S.Mirokovoy.M.,s.134
7. A.Muhammadjonov.(2017) O'zbekiston tarixi 7-sinf.Toshkent:Sharq